

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.05.2022.PED.16.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA  
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**ABDULLAYEVA NAFISA SHAVKATOVNA**

**KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.07 – Ta'limda menejment**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (DSc) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (DSc) on  
pedagogical sciences**

**Abdullayeva Nafisa Shavkatovna**

Klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish.....3

**Абдуллаева Нафиса Шавкатовна**

Совершенствование механизмов повышения качества образования в дошкольных образовательных организациях на основе кластерного подхода.....29

**Abdullaeva Nafisa Shavkatovna**

Improvement of mechanisms for improving the quality of education in preschool educational organizations based on the cluster approach .....57

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.05.2022.PED.16.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA  
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**ABDULLAYEVA NAFISA SHAVKATOVNA**

**KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.07 – Ta'limda menejment**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2020.4.DSc/Ped185 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

<b>Ilmiy maslahatchi:</b>	<b>Mirsoliyeva Muxabbat To‘xtasinovna</b> pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Xodjamqulov Umid Negmatovich</b> pedagogika fanlari doktori, professor <b>Yuldashev Maqsud Abdullaevich</b> pedagogika fanlari doktori, professor <b>Djamilova Nargiza Nuriddinovna</b> pedagogika fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Farg‘ona davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.05.2022.ped.16.04 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100066, Toshkent shahri Chilonzor tumani Islom Karimov ko‘chasi 49 uy. Tel.: +99871 239-01-43, +99871 239-01-49 faks: (0311) 239-41-23 (99871) 246-06-69; Web-site: [www.tsue.uz](http://www.tsue.uz); Ye-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz))

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri Chilonzor tumani Islom Karimov ko‘chasi 49 uy. Tel.: +99871 239-01-43, +99871 239-01-49 faks: (0311) 239-41-23 (99871) 246-06-69; Web-site: [www.tsue.uz](http://www.tsue.uz); Ye-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz))

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**M.F. Xakimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**Sh. Mamarajabov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, p.f.n., dotsent

**D.O. Ximmataliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

## **Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ta'limga klasterli yondashuvni tatbiq etishga, yuqori texnologik sohalarda yetakchilik qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals)da mehnat bozorida talab katta bo'lgan kasbiy-texnik, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyatda raqobatbardoshlikni oshirish, ta'lim xizmatlari diversifikatsiyasini ta'minlash global indikatorlardan biri sifatida belgilangan. Bu o'z navbatida maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim va malaka oshirish tashkilotlarining integratsiyasini ta'minlovchi innovatsion kampus sifatidagi faoliyatini takomillashtirishni taqazo etmoqda.

Dunyoda yetakchi ilmiy markazlar, tadqiqotchilar tomonidan oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish integratsiyasiga asoslangan ilmiy innovatsion klasterlarni rivojlantirish, klasterlar menejmenti, ularning o'zaro konstruktiv muloqot mexanizmlarini takomillashtirish, kadrlar innovatsion faolligini oshirishning ochiq axborot tizimlarini yaratishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. YUNESKOning oliy ta'lim kvalifikatsiyalarini tan olish to'g'risidagi Global konvensiyasi (2019) da oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanadigan yuqori malakali mutaxassislarining ta'lim jarayonlariga jalb qilinishi bevosita ularning tizimli tahlil va kreativ fikrlash ko'nikmalari, innovatsion rivojlanishni ta'minlovchi kasbiy kompetensiyalarga egaligi bilan bog'lanadi. Maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim va malaka oshirish integratsiyasini rivojlantirishda boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish, ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish kabi istiqbolli yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimida innovatsion axborot ta'lim muhitini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim va malaka oshirish integratsiyasini klasterli yondashuv asosida takomillashtirish bilimlar transferini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim jarayonini yuqori darajada tashkil etish hamda ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tizimli joriy etish zaruratini namoyon qilmoqda. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish"<sup>1</sup> vazifalari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi PF-6097-son Farmoni integratsiya modelini, oliy ta'lim muassasalarini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv, pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni taqazo etadi. 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori <https://lex.uz/docs/4327235>

son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalarini va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi va boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

### **Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.<sup>2</sup>**

Ta‘limga klaster modelini tatbiq etish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Massachusetts va Garvard universitetlari (AQSh), Strasburg universiteti (Fransiya), Uppsala universiteti (Shvesiya), TU9 – Germaniya texnologiyalar universiteti va “U15” universitetlar ittifoqi (Germaniya), “Oliy iqtisodiyot maktabi” milliy tadqiqotlar universiteti (Rossiya), Belarus davlat pedagogika universiteti (Belarussiya) hamda, Namangan davlat universiteti hamda Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universitet (O‘zbekiston) larida olib borilmoqda.

Maktabgacha ta‘limga klaster yondashuvini tatbiq etishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: iqtisodiyot tarmoqlarida mavjud ishlab chiqarish jarayoni ketma-ketligi ta‘lim klasterlarida inson kapitalining bozor mexanizmlaridagi ekvivalenti sifatida modellashtirilgan (Massachusetts va Garvard universitetlari); klaster vositasida oliy ta‘lim muassasalarini tashkiliy jihatdan birlashtirish natijasida ularning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro reytinglarda milliy ta‘lim tizimining ko‘rsatkichlarini yaxshilashning ilmiy asoslari yaratilgan (Strasburg universiteti); ta‘lim muassasalarida fanlarni klaster vositasida o‘qitishning

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.hhs.se/contentassets/f51b706e1d644e9fa6c4d232abd09e63/greenbooksep03.pdf>; <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=26824>; Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors<sup>2</sup>, Cambridge, 1980, 454 pages; Innovation clusters in France: Innovation Comes First. URL: <http://www.invest-infrance.org/us/why-choose-france/research-and-partnerships-innovation-clusters.htm>; Elektronnyj resurs: <http://www.promcluster.ru/index.php/publications-clusters.html>; Концепция развития педагогического образования на 2015–2020 годы: утв. Приказом Министерства образования Респ. Беларусь, 25 фев. 2015 г., № 156. [Электронный ресурс].- Режим доступа: [http://bspu.by/admin-panel/vendor/kcfinder/upload/files/klaster/The concept of teacher education.pdf](http://bspu.by/admin-panel/vendor/kcfinder/upload/files/klaster/The%20concept%20of%20teacher%20education.pdf). –с.10. ва бошқа манбалар асосида амалга оширилган.

modernizatsiyalashgan tizimi yaratilgan (Uppsala universiteti); klaster yondashuvi orqali ta'lim va fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashning hududiy modellari ishlab chiqilgan (TU9 – Germaniya texnologiyalar universiteti); mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlarni hududlar kesimida taqsimlab tayyorlash tizimining klaster modeli ishlab chiqilgan (“Oliy iqtisodiyot maktabi” milliy tadqiqotlar universiteti); pedagogik ta'limga klaster yondashuvini tatbiq etishning innovatsion hududiy tuzilmalari yaratilgan (Belarus davlat pedagogika universiteti); pedagogik ta'lim innovatsion klasterining milliy modeli, tamoyillari va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari ishlab chiqilgan (Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Namangan davlat pedagogika universiteti).

Jahonda pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish yuzasidan bir qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: iqtisodiyotdagi klaster modelida sub'ektlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi, ularning kuch va salohiyatlarini birlashtirish orqali samara-dorlikni ta'minlovchi mexanizmlarini umumiy maqsad, xususiy manfaat, o'zaro nazorat kabi klaster tamoyillari asosida takomillashtirish; oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarni yagona tizimga birlashtirish asosida ularning raqobatbardoshligini oshirish; klasterlarning ta'lim sub'ektlari raqobatbardoshligini ta'lim-fan-ishlab chiqarishni integra-siyalash orqali ta'minlashdagi rolini ilmiy asoslash; pedagogik ta'lim klasterlarini amaliyotga tatbiq etishning mexanizmlarini mavjud ta'lim siyosatining tamoyillarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga oid tadqiqotlar F.R.Qodirova, A.V.Shin, D.A.Abdurahimova, X.N.Ibragimova, T.L.Xurvaliyeva, Z.F.Azizova, G.A.Berdaliyeva, G.M.Nazirova, N.I.Rejametova, I.I.Tuychiyeva, S.S.Raximova, M.M.Berdiyeva, G.E.Djanpeisova, Sh.A.Sodiqova, D.R.Babayeva, M.T.Hamdama, N.S.Mo'minova, N.S.Shaizakova, M.N.Xushnazarova, O.A.Mahmudova boshqalar tomonidan olib borilgan.

Respublikamizda ta'lim muassasalarini oshirishning zamonaviy konsepsiyalari mohiyati hamda mazmuni, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim jarayonida integratsiya, uzviylik va uzluksizlik masalalari, ta'lim jarayoniga innovatsiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga oid ilmiy tadqiqotlar R.Djo'rayev, Sh.Sharipov, Sh.Qurbonov, F.Zakirova, U.Begimqulov, Sh.Mardonov, N.Muslimov, Q.Olimov, E.Yuzlikayevalarning ilmiy tadqiqotlarida, oliy pedagogik ta'lim tizimida innovatsion menejmentni shakllantirish ta'lim tizimi menejmenti, strategik va funksional menejmentni integratsiyalash mexanizmlarini joriy etish, malaka oshirish muassasalarida ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish mexanizmlari, pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirish M.Mirsoliyeva, U.Inoyatov, J.Yo'ldoshev, Ya.Ismadiyarov, A.Magrupov, S.Turg'unov, M.Yuldashev, Sh.Sh.Mirziyoyeva, B.U.Usmonov, U.N.Xodjamqulovlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida klasterli yondashuvlar asosida ta'lim jarayonlarini tashkil qilish A.A.Araslanova, N.V.Vasilchenko, Ye.A.Korchagin, G.V.Muxametzyanova, pedagogik faoliyat va loyihalashtirish V.V.Давыдов, A.N.Leontyev, V.P.Bespalko, V.S.Lednev, M.I.Maxmutov, V.A.Slastenin, uzluksiz ta'lim tizimining zamonaviy mexanizmini yaratish B.S.Gershunskiy, A.M.Novikov, oliy ta'lim tizimini mintaqaviy jihatlarini e'tiborga olgan holda rivojlantirish bo'yicha A.G.Abrosimov, N.Vasilchenko, A.S.Subetto, V.P.Kovalevskiy, S.B.Smirnovlar tomonidan olib borilgantadqiqotlarda ilmiy-amaliy jihatdan o'rganilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining №PZ-20170927124 "Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasining yagona ma'lumotlar bazasi va elektron platforma yaratish" loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

klasterli yondashuv asosida uzluksiz ta'lim sifatini oshirishning metodologik hususiyatlari, pedagogik-psixologik omillarini aniqlash;

maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim va malaka oshirish tizimlarining klasterli integratsiyasini ta'minlashning tashkiliy-boshqaruv shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

maktabgacha ta'lim klasteri subyektlarining integrativ faoliyati samaradorligini oshirish modelini takomillashtirish;

klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini kvalimetrik baholash mexanizmlarini takomillashtirish;

klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim va malaka oshirish instituti integratsiyasini klasterli yondashuv asosida takomillashtirish jarayoni belgilanib, Namangan, Sirdaryo, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlaridagi 8 ta maktabgacha ta'lim tashkilotining 135 nafar rahbar va pedagoglari, maktabgacha ta'lim yo'nalishida kadrlar tayyorlovchi 4 ta oliy ta'lim muassasalari Chirchiq davlat pedagogika instituti, Namangan davlat universiteti, Guliston davlat universiteti, Qarshi davlat pedagogika institutining 162 nafar bitiruvchi talabalari, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malaka oshirish institutining 421 tinglovchilari jalb etildi.

**Tadqiqotning predmeti** maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim va malaka oshirish instituti integratsiyasini klasterli yondashuv asosida takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish, tizimli tahlil, pedagogik diagnostika, so'rovnoma, intervyu, ilmiy prognoz, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik va

ma'lumotlarni qayta ishlash, interpretatsiya hamda korrelyatsion tahlil kabi nazariy, empirik va kvalimetrik metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

klasterli yondashuv asosida uzluksiz ta'lim sifatini oshirishning tashkiliy-pedagogik hususiyatlari o'zgaruvchan ta'lim muhitining moslashuvchanlik, individualizatsiya, differentsiatsiya kabi darajalarini erkin akademik trayektoriyaga yo'naltirilgan hamkorlik mazmuniga ijtimoiy tenglik munosabatida kiritish asosida aniqlashtirilgan;

maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim va malaka oshirish tizimlarining o'zaro klasterli integratsiyasini ta'minlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari tizimlararo mazmun uzviyligini muntazam ta'minlashga yo'naltirilgan eksperimental maydonni modellashtirishning ochiqlik, shaffoflik, natijadorlik, sifat o'lchovi kabi tamoyillariga manfaatli xissadorlik jihatdan ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini kvalimetrik baholash mexanizmlari subyektlar faoliyatiga ortiqcha yuklanishni cheklovchi vertikal hamda ta'lim oluvchi ehtiyojlarini infratuzilmaviy o'sish sharoitida ta'minlovchi gorizontal klasterlarning real o'lchamli prognostik sinergiyasini motivatsion impuls ta'siriga yo'naltirish asosida takomillashtirilgan;

maktabgacha ta'lim klasteri subyektlarining integrativ faoliyati samaradorligini oshirish modeli o'quv laboratoriyalar hamda ishlab chiqarish integratsiyasini sifat menejmenti instrumentlari asosida oshirishning "SMART rejalashtirish", "Taym menjejment", "Sifat barqarorligi" kabi texnologiyalariga ishbilarmonlik muhitida ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish mexanizmi transformatsion jarayonlarda (hamkorlikka psixologik tayyorgarlik, bilimlar transferi, zahiralarni aniqlashtirish, ijtimoiy imidj, kreativ tadbirkorlik) rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan modulli malaka oshirish kurslarini kiritish orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Klasterli yondashuv asosida uzluksiz ta'lim sifatini oshirishning metodologik hususiyatlari, pedagogik-psixologik omillari aniqlashtirilgan;

maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim va malaka oshirish tizimlarining klasterli integratsiyasini ta'minlashning tashkiliy-boshqaruv shart-sharoitlarini aniqlashtirilgan;

maktabgacha ta'lim klasteri subyektlarining integrativ faoliyati samaradorligini oshirish modeli amaliyotga "Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasining yagona ma'lumotlar bazasi va elektron platforma yaratish" loyihasi doirasida "O'quv kompleks laboratoriya" platformasi amaliyotga joriy etish orqali takomillashtirilgan;

klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini kvalimetrik baholash mexanizmlarini takomillashtirilgan;

klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruv kadrlari zaxirasini maqsadli o'qitish" qisqa muddatli o'quv kursi,

“Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruv kadrlarini menejerlik qisqa muddatli kursi”, “Pedagogika kollejlari pedagoglari uchun “Ilm yo‘li” variativ dasturi bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kursi dasturlari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Qo‘llanilgan yondashuv, usullar va ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik usullari bilan ilmiy asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mavzu doirasidagi ilmiy izlanishlar natijasida klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlari takomillashtirish mazmuni, tashkiliy-pedagogik tuzilmasi, ta’lim klasterlarining gorizontaal va vertikal integratsiyasi talablari, shakl va metodlari, oshirish mexanizmlarini ko‘rsatkichlarining o‘shish darajasini asoslanganligi hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning hududiy jihatlarini takomillashtirishning samarali yo‘llari, ta’lim tizimining raqobatbardoshligini ta’minlovchi tizim yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalari va tavsiyalaridan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini klasterli yondashuvlarga asoslangan maktabgacha ta’lim, oliy ta’lim va malaka oshirish integratsiyasini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasasi talabalarini nazariy va amaliy bilim ko‘nikmalarini baholash va monitoringini olib borishda, malaka oshirish instituti rahbar va pedagog kadrlarini malakasini oshirish kurslarida samarali foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

klasterli yondashuv asosida uzluksiz ta’lim sifatini oshirishning tashkiliy-pedagogik hususiyatlari o‘zgaruvchan ta’lim muhitining moslashuvchanlik, individualizatsiya, differentsiatsiya kabi darajalarini erkin akademik trayektoriyaga yo‘naltirilgan hamkorlik mazmuniga ijtimoiy tenglik munosabatini kiritish asosida aniqlashtirilgan takliflardan maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi qoshidagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 25-apreldagi 03-53-son ma’lumotnomasi). Natijada, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbar va pedagog kadrlarining boshqaruv kompetentligini, ta’lim sifati oshirish borasidagi zamonaviy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi malaka oshirish kurslarining o‘quv reja va dasturlari mazmuni takomillashtirilgan;

maktabgacha ta’lim, oliy ta’lim va malaka oshirish tizimlarining o‘zaro klasterli integratsiyasini ta’minlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari tizimlararo mazmun uzviyligini muntazam ta’minlashga yo‘naltirilgan

eksperimental maydonni modellashtirishning ochiqlik, shaffoflik, natijadorlik, sifat o'lchovi kabi tamoyillariga manfaatli xissadorlik jihatdan ustuvorlik berishga oid tavsiyalar Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti loyihalari va Qo'qon davlat pedagogika institutining "Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasining yagona ma'lumotlar bazasi va elektron platforma yaratish" loyihasi (2022-2023-yillar) mazmuniga kiritilgan va amaliyotga joriy etilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 20-apreldagi 4/17-20/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, maktabgacha ta'lim tashkiloti, oliy ta'lim muassasalari va malaka oshirish institutlari o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yishga, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchi va talabalari, malaka oshirish instituti tinglovchilari ehtiyojidan kelib chiqib metodik ta'minotni takomillashtirishga erishilgan;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini kvalimetrik baholash mexanizmlari subyektlar faoliyatiga ortiqcha yuklanishni cheklovchi vertikal hamda ta'lim oluvchi ehtiyojlarini infratuzilmaviy o'sish sharoitida ta'minlovchi gorizontall klasterlarning real o'lchamli prognostik sinergiyasini motivatsion impuls ta'siriga yo'naltirish bo'yicha takliflardan Oliy ta'lim muassasalarining 5110900-Pedagogika va psixologiya, 5611700-Maktab menejmenti bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari malaka talablari, o'quv reja va dasturlari mazmunini shakllantirishda, o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirishda hamda maktabgacha ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun o'quv seminarlari, treninglar tashkil etishda foydalanilgan va maktabgacha ta'lim bakalavr yo'nalishiga "Bolalar adabiyoti" nomli darslik tayyorlangan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 20-apreldagi 4/17-20/1-son ma'lumotnomasi)

Natijada, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari malaka talablari, o'quv reja va dasturlari mazmunini shakllantirishda, o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirishga erishilgan.

maktabgacha ta'lim klasteri subyektlarining integrativ faoliyati samaradorligini oshirish modeli o'quv laboratoriyalar hamda ishlab chiqarish integratsiyasini sifat menejmenti instrumentlari asosida oshirishning "SMART rejalashtirish", "Taym menjejment", "Sifat barqarorligi" kabi texnologiyalariga ishbilarmonlik muhitida ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalardan malaka oshirish institutida tashkil etilgan "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun innovatsion tadqiqot laboratoriyasi"ning nizomini ishlab chiqishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi qoshidagi Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 25-apreldagi 03-53-son ma'lumotnomasi) Natijada, malaka oshirish va oliy ta'lim muassasalari integratsiyasi kasbiy-axborot muhitini shakllantirish, o'quv jarayonida klaster texnologiyalarini qo'llash, ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish talablarini xorijiy tajribalar asosida transformatsiyalash imkoniyati kengaygan;

klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish mexanizmi transformatsion jarayonlarda hamkorlikka psixologik tayyorgarlik, bilimlar transferi, zahiralarini aniqlashtirish, ijtimoiy imidj, kreativ tadbirkorlik, rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan modulli malaka oshirish kurslarini kiritish orqali ta'lim sifatini oshirishga oid tavsiyalardan malaka oshirish institutida tashkil etilgan "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruv kadrlari zaxirasini maqsadli o'qitish" qisqa muddatli o'quv kursi, "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruv kadrlarini menejerlik qisqa muddatli kursi", "Pedagogika kollejlari pedagoglari uchun "Ilm yo'li" variativ dasturi bo'yicha qisqa muddatli o'quv kursini dasturlarini tayyorlashda foydalanilgan (Oliy majlis qonunchilik palatasining fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining 2023-yil 20-apreldagi 04/9-1017-son ma'lumotnomasi). Natijada, maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim va malaka oshirish hamkorligini tizimli yo'lga qo'yishga, maktabgacha ta'lim tizimiga zamonaviy rahbar kadrlar zaxirasini tayyorlashga, rahbar kadrlarni menejerlik ko'nikmalarini takomillashtirishga va variativ dasturlarni amaliyotga joriy etilishini ta'minlash orqali pedagog kadrlarni ijtimoiy imidjini va rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini oshirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi:** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 50 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining DSc doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta ilmiy maqola nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matni 248 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy yondashuvlari, maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirishda klasterli yondashuvning o'rni, maktabgacha ta'lim tizimida klasterli yondashuvni joriy etishning afzalliklari yoritilgan.

Maktabgacha ta'lim – ijtimoiy farovonlikning hal qiluvchi omili. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, maktabgacha tarbiya tizimiga kadrlar tayyorlash sifatini baholash muammosi juda murakkab. Ushbu muammoni hal qilmasdan, maktabgacha ta'lim tizimining asosiy maqsadiga, davlatning kadrlar salohiyatini shakllantirishga erishib bo'lmaydi.

“Maktabgacha ta'lim sifati” tushunchasi ta'lim sifatiga nisbatan torroq tushunchadir. O'qitish sifati o'quv jarayonining bevosita natijasidir. Bu professor-o'qituvchilar malakasi darajasiga, o'quv-uslubiy ta'minotga, moddiy-texnik bazaning holatiga, talabalarning intellektual salohiyatiga va boshqalarga bog'liq. Maktabgacha ta'lim sifati qo'shimcha xususiyatlarni o'z ichiga oladi, masalan, o'quv yurtlari bitiruvchilariga bo'lgan talab, ularning martaba darajasi, universitetning ishlab chiqarish munosabatlari ish beruvchilari nuqtayi nazaridan baholash, shikoyatlarning mavjudligi yoki yo'qligini ham hisobga olish kerak.

U.I.Inoyatov “ta'lim sifati” nafaqat ta'lim oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi, shuningdek, har bir pedagog va rahbarning ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlashdagi faoliyati natijasini ham belgilab beradi deb ta'rif bergan.

Sh.Qurbonov va E.Seytxalilovlarning tadqiqotlarida ta'lim sifati deganda “ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari ta'lim muassasasi tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlaridan kutganlarining qanoatlantirilishi darajasi” yoki “ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishish darajasi” sifatida tushuniladi.


A.Voronin tomonidan ta'lim sifati – jamiyatda ta'lim jarayonining holati va natijasini, shaxsning fuqarolik, hayotiy va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishi hamda shakllanish ehtiyojlari va umidlariga muvofiqligini aniqlovchi kategoriya tarzida talqin qilingan.

Yuqoridagi olimlar fikridan kelib chiqib, bizning fikrimizcha **maktabgacha ta'lim sifati** – uning xususiyatlari yaxlitligi, ta'lim oluvchining o'qishi va shaxsiy rivojlanishi uchun xizmat qiladigan eng qulay usullar birikuvidan iborat murakkab jarayondir deb ta'rif berdik.

Maktabgacha ta'lim sifati o'quv-tarbiya jarayoni – ta'lim xizmati va uning natijasi sifati – tarbiyalanuvchini tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta'lim tizimida sifetni oshirish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikni yo'ga qo'yish zarur.

Ta'lim muassasalari va buyurtmachi-xodimlarning o'zaro munosabatlari quyidagi sifet bosqichlarini ta'minlash va saqlashga qaratilgan chora-tadbirlar, usullar, modellar va vositalarni o'z ichiga oladi: o'quvchilar kontingentini shakllantirish, ta'lim muassasasida o'qitish va tarbiyalash, ish bilan ta'minlash, mutaxassislarni doimiy ravishda baholash va tizimli tahlil qilish orqali ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, texnologik, tashkiliy jihatlarni tayyorlash va shakllantirish asosida maqsadli tayyorlash. o'qitish sifatini belgilovchi shartlar va omillarga ta'siri. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga sifatli kadrlar tayyorlash sifati deganda, biz ishlab chiqarishning hozirgi rivojlanish bosqichida uning kasbiy

va ijtimoiy funksiyalarni bajarishini ta'minlaydigan mutaxassis shaxsiyatining muhim xususiyatlarining yig'indisini anglatadi.



**1-rasm. O'quv yurtlari va buyurtmachi-maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xamkorligining tashkiliy-texnologik modeli**

Yuqorida yuqorida keltirilgan masalalar o'quv muassasalari va buyurtmachilarga xizmat ko'rsatadigan korxonalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tashkiliy va texnologik modelida keltirilgan (1-rasm).

Klaster modelining ta'lim sohasiga kirib kelishi tabiiy jarayon sifatida qaralishi lozim. Chunki keyingi yarim asrga yaqin davr mobaynida dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari butun dunyoda ta'lim sub'ektlari o'rasida raqobat muhitining keskin oshishiga olib keldi. Bunday kuchli raqobat muhiti, albatta, ta'lim sohasiga ham taalluqli bo'lib, mazkur sharoitda ta'lim sub'ektlarining samarali faoliyat olib borishlari uchun ko'p tomonlama manfaatli kelishuvlar, hamkorlik juda muhim hisoblanadi.

Ayni paytda maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, ta'lim tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi va yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish uchun unga zamonaviy usullarni tatbiq qilish zarurati paydo bo'lmoqda. Shunday innovatsion usullardan biri – klasterdir.

Klasterning amaliy ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va yuqori samaradorlikka erishishni nazarda tutadi.

“Klaster” nazariyasi rivojlanishidan uning ikki fundamental tavsifini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchisi, klasterga uyg‘unlashgan korxonalar va firmalar faoliyati aniq bir xil turdagi tovarlar bozori bilan bog‘liq bo‘lishi zarur.

Ikkinchisi – klasterlar geografik yaqin joylashgan o‘zaro bog‘liqlikdagi korxonalar guruhi bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashishi natijasida raqobatbardoshlikning rivojlanishi, ko‘proq qo‘shimcha qiymatni yaratishiga va bozorda sotilishiga imkoniyatlar yaratishdir.

Rus tadqiqotchisi Yu.A.Artyunov ta‘lim klasterini yaratishga nisbatan ikki xil yondashuvni: yuqoridan quyiga va quyidan yuqoriga o‘zaro bog‘langan algoritmlarni taklif qiladi.

Rus olimi A.M.Kamenskiyning fikricha, pedagogikada klaster tushunchasi faoliyatni hamkorlikda tashkil qilishni anglatadi. Tadqiqotchi bu hamkorlikni faqat loyihalar, tadqiqotlar, ishlanmalar va ilmiy maqolalarning jamoaviy tarzda birga bajarilishi bilan izohlaydi.

Klaster borasida olib borilgan tadqiqotlarda, jumladan, amerikalik tadqiqotchi M.Porter tadqiqotlarida ham klaster iqtisodiy kategoriya sifatida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan hamkorlik sifatida talqin qilinadi

Tadqiqotimiz davomida maktabgacha ta‘lim klasterining shakllanish omillari sifatida quyidagilarni aniqladik:

**integratsiya** – sohalararo bog‘lanish, tabiiy aloqadorlik, uzviylik va izchillik: klaster doirasida ta‘lim sub‘ektlari hamkorligiga tabiiy ehtiyojning mavjudligi, ushbu ehtiyojning uzviylik va izchillik tamoyillaridan kelib chiqqan holda qondirilishi;

**tashabbus** – sohaning samaradorligi bilan bog‘liq har qanday innovatsion loyiha va takliflarning qo‘llab-quvvatlanishi: ya‘ni muayyan klaster sub‘ekti tomonidan ilgari surilgan tashabbusga boshqa sub‘ektlarning ham qiziqish bildirishi, uni hamkorlikda amalga oshirishi va qo‘llab-quvvatlashi;

**manfaatdorlik** – klasterda har bir sub‘ekt o‘zining manfaatdorligiga ega bo‘lishi: ta‘lim klasterining samarali faoliyati undagi sub‘ektlarning xususiy manfaatdorligi qondirilgandagina ta‘minlanadi;

**innovatsiyalar** – zamon va taraqqiyotga mos holda qadam qo‘yish, yangi loyiha va g‘oyalarning muntazamligi: bu omil ta‘lim klasterida zamonaviylik tamoyilining tabiiyligini asoslaydi, innovatsion g‘oya va loyihalar uning samaradorligi uchun muhim ekanligini ko‘rsatadi;

**axborotlar** – sohaning barqaror rivojlanishi uchun yetarli axborot bazasining mavjudligi va muntazam yangilanib turishi: klasterni shakllantirishda axborot oqimining o‘rni ham juda muhim. Klaster mohiyatiga ko‘ra axborotlar, bilimlar tarqalishining, umumiy maqsad mavzusidagi muloqotlarni yo‘lga qo‘yishning

maydoni bo‘lib, bu maydonda kechayotgan jarayonlar eng oqilona qarorlarga kelish uchun zamin yaratadi. Oqibatda, axborot bazasining kuchi klasterni rivojlantirishning manbai bo‘lib xizmat qiladi.


## 1-jadval

### Maktabgacha ta’lim tizimida klaster tizimini joriy etishning afzalliklari

	Maqsad	Natija
1	O‘quv-tarbiya jarayoni mazmunini takomillashtirish va yangilash	Ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohaslarida yangi bilim va texnologiyalarni tarqatish tizimi yaratiladi, shuningdek, innovatsion faoliyat rag‘batlantiriladi, natijada innovatsion mahsulotning alohida shakli yaratiladi
2	Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini takomillashtirish	O‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligi va sifati oshadi
3	O‘quv-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarga hududning ehtiyoj va talablariga mos holda yo‘naltirish	Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga va mehnat bozorining talablariga moslashtirish ta‘minlanadi
4	O‘quv-tarbiya jarayonlarini davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligini ta‘minlash	Pedagog-tarbiyalanuvchilar davlat-xususiy sektor hamkorligi prinsiplariga muvofiq ilmiy-tadqiqot muassasalari va maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining ta’lim, ilmiy va innovatsion jarayonlarida ishtirok etadi
5	O‘quv-tarbiya jarayonini zamon talablari asosida moddiy-texnik bazasini yaratish	Moddiy va axborot resurslaridan foydalanish samaradorligi oshiriladi
6	O‘quv-tarbiya jarayonida pedagog-tarbiyachilarning ilmiy salohiyatini yuksaltirish	Ta’lim, iqtisodiyot va ijtimoiy ahamiyatga molik keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratiladi, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyat faollashadi
7	Amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish faoliyatini takomillashtirish	Malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi
8	maktabgacha ta’lim tashkilotlari imkoniyatlaridan foydalanish	Turli darajalardagi o‘quv-uslubiy va variativ dasturlarini tajriba-sinovdan o‘tkazish uchun tajriba maydonchalari shakllantiriladi
9	pedagog-tarbiyachilarning o‘quv-tarbiya faoliyatini takomillashtirish, ularga sharoit yaratish	O‘quv-pedagogik kadrlarning ijodiy salohiyatini va uslubiy yutuqlarini to‘plash va jamlash, ularning ijodiy ishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi
10	O‘quv-tarbiya jarayonni doimiy tarzda takomillashtirib borish	Kadrlar salohiyati doimiy ravishda takomillashib boradi, ilmiy va pedagogik maktab faoliyati rivojlanadi, ilmiy va pedagogik an‘analarning ko‘payishi ta‘minlanadi
11	Tarbiyalanuvchilar uchun qulay ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish	Tarbiyalanuvchilar uchun qulay o‘quv sharoitlari shakllanib, ularning talab va istaklari bo‘yicha ta’limning optimal darajasi oshiriladi, ta’lim xizmatlari kengayadi va takomillashadi
12	Maktabgacha ta’lim muassasalari o‘rtasida uzviylik va uzluksizlikni ta‘minlash	Maktabgacha ta’limni boshqaruv organlari bilan ijtimoiy hamkorlik tizimi yaratiladi

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish shart-sharoitlari**” deb nomlanib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda klasterli yondashuvni joriy etishning ijtimoiy-pedagogik asoslari, klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish mazmuni, tamoyillari, klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya sifatini oshirishning integral modeli yoritib berilgan.

**“Ta’lim sifatini oshirish”** yo‘nalishi – ta’lim sifatini oshirishning murakkab vazifasini muvaffaqiyatli hal etish, uni takomillashtirish pedagogik faoliyatini har tomonlama obyektiv tahlil qilish asosida o‘qitish va ta’lim jarayonini samarali qurishga asoslangan holda amalga oshirilishini nazarda tutadi. Dasturning maqsadi - klaster yondashuvi asosida maktabgacha ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan dastur va loyihalar faoliyati mexanizmlarini integratsiyalash, muvofiqlashtirish, xususiy manfaatlardan kelib chiqib, umumiy maqsadlar sari xizmat qilishga yo‘naltirish. Maktabgacha ta’lim samaradorligini oshirish dasturi butunlikning o‘ziga xos belgisi sifatida muassasada amaliyotga tatbiq qilingan boshqa loyiha va dasturlar faoliyati samaradorligini bir butun holda, bir-biri bilan uzviylikda olib borilishini, loyihalardagi maqsad va vazifalar muvofiqligini ta’minlaydi. Tadqiqotda aynan shu dastur orqali MTTlarga innovatsion loyihalarni safarbar qilish va tatbiq qilish mexanizmi ishlab chiqildi.



**2-rasm. Maktabgacha ta’lim sifatini oshirish dasturi mexanizmi**

Tadqiqotchi R.Obidov o'z ilmiy ishlanmalarida klaster tushunchasiga tadqiqotchilar tomonidan berilgan turli ta'rif va tavsiflarni jamlagan. Ularni umumlashtirganimizda mazkur tushunchaning quyidagi belgilarga ega omil ekanligi ma'lum bo'ldi: *o'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlash; raqobatbardoshlikni kuchaytirish; bir nechta komponentlardan tashkil topish; sub'ektlarni yagona umumiy maqsad ostida birlashtirish; davlat uchun iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy ahamiyatga ega bo'lish; sub'ektlarning bitta geografik hududda joylashuvi; sub'ektlarning bir-birini to'ldirishi; hududning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshirish.*

Tadqiqotchilar N.N.Davidova hamda B.M.Igoshevlar tomonidan ta'lim klasterining yettita asosiy strategiyasi qayd qilib o'tilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

geografik strategiya: mahalliydan tortib xalqaro masshtabgacha bo'lgan hududlarda yoyilgan klaster turlari;

gorizontal strategiya: bir nechta klasterlarning birlashuvidan tashkil topgan klasterning migastruktura shakli;

vertikal strategiya: birlashtiruvchi, ya'ni bir xil darajadagi sub'ektlarni birlashtiruvchi klasterlar;

lateral strategiya: har xil strukturadagi sub'ektlarni birlashtiruvchi, o'lchovni iqtisod bilan ta'minlay oladigan, yangi kombinatsiyalarga olib keladigan klasterlar;

texnologik strategiya: bir xil texnologiyadan foydalanadigan tuzilmalar to'plamida ko'zga tashlanadigan klasterlar;

fokusli strategiya: bitta markaz atrofida joylashgan klaster sub'ektlari;

sifat strategiyasi: tashkilotlarning hamkorlikni qanday amalga oshirish asosiy masala sifatida turadigan klaster shakli.

**Maktabgacha ta'lim klasteri** – bu sohaga tegishlilik belgilari bo'yicha birlashgan, soxa tashkilotlari bilan xamkorlik munosabatlari o'rnatgan o'zaro bog'liq ta'lim muassasalarining majmuidir. Maktabgacha ta'lim klasteri – bu ilm-fan-texnologiya-biznes zanjiriga birlashtirilgan, zanjir ichida asosan gorizontal aloqaga asoslangan ta'lim, o'zaro ta'lim va mustaqil ta'lim tizimidir xamda munosabatlarning vertikal bo'yicha “sifatli kadr” yetishitirish bo'yicha, gorizontal bo'yicha ularni zamonaviy yondashuvlar asosida boshqarish bo'yicha bog'liq bo'lgan zanjirdir.

Tizimlilik tamoyili pedagogik jarayonni loyixalashtirishda darsliklararo va tizimli yondashuvning yaxlitligi, nazariy va amaliy tayyorgarlikning sintezi, pedagogik va ishlab chiqarish jarayonlari, ularning tizim osti va komponentlarini birligida namoyon bo'ladi.

Yuqorida klaster tushunchasiga berilgan fikrlardan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim klasteriga qo'yidagicha ta'rif berdik. *Maktabgacha ta'lim klasteri bu – uni tashkil etuvchi tashkilotlarning, ularning ijtimoiy sherikligini jadal rivojlantirishni ta'minlaydigan integratsion mexanizm bo'lib, bir-biriga bog'liq bo'lgan ta'limiy, kasbiy, ilmiy, ijtimoiy va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini bir maqsad yo'lida birlashtirgan va qat'iy natija beradigan ta'lim-tarbiyaviy tizimga aytiladi.*

Maktabgacha ta'lim klasterini 3 xil usul bilan amalga oshirish mumkin: shakllantiruvchi, aralash va yetakchi usul.

Shakllantirish usuli “quyi tashkilot” tashabbusi asosida paydo bo‘ladi. Ushbu holat tashabbuskorligi bilan o‘z an‘analari asosida mashxur bo‘lgan oliy ta‘lim muassasalarida amalga oshishi mumkin. Bunday oliy ta‘lim muassasalari mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lgan mutaxassislarning tayyorgarlik sifatini oshirishdan, ularni ishga joylashishidan, faoliyati o‘shishidan, oliy ta‘lim muassasalarining laboratoriya bazasi kengayishidan va zamonaviy jixozlar bilan jixozlanishidan manfaatdor bo‘lishidir.

Aralash usuli «ta‘lim tashkilotlari» tashabbusi asosida. Bu holatda klasterni mustaqil tashkil etish bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalari, malaka oshirish va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining birgalikdagi tashabbuskorona harakatlari asosida amalga oshiriladi.

Yetakchi usuli — “yuqori tashkilotlar” tashabbusi bilan. Hudud ma‘muriyati hudud ta‘lim tizimini raqobatbardoshligini va ta‘lim sifatini oshirish uchun xarakatlantiruvchi tarmoq ta‘lim klasterlarini tuzish tashabbusi bilan chiqadi.

Klaster strategiyasini amalga oshirish oliy ta‘lim muassasalarigalar, malaka oshirish va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bilan konstruktiv hamkorlik qilish bo‘yicha qulay vosita bo‘lib xizmat qiladi. Oliy ta‘lim muassasalarigalarda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni maktabgacha ta‘lim tashkilotlarda tadbiq etish kadrlar raqobatbardoshligini oshiradi. Oliy ta‘lim muassasalarigalarda kadrlarni tayyorlash sifatini oshishi, ularning o‘quv laboratoriya bazasini kengayishi, nufuzini oshishi maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish uchun investisiya oqimini ortishiga olib keladi.

Biz tomondan maktabgacha ta‘lim klasterini rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi omillar aniqlandi:

Oliy ta‘lim muassasalarda yuqori malakali innovatsion kadrlar, innovatsion potensialning mavjudligi. Universitetning innovatsion potensialini rivojlanganligi maktabgacha ta‘lim tashkilotlar ta‘lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyachlarini kiritish imkonini beradi. Barcha darajadagi ta‘lim olish imkoniyati, uzluksiz ta‘limni tashkil etish imkoniyati;

Ta‘lim olishga bo‘lgan jamoat talabining ortishi;  
maktabgacha ta‘limning ommaviylashishi xususiyati.

Biroq maktabgacha ta‘lim klasteri rivojlanishini to‘siq turuvchi qator omillar mavjud:

oliy ta‘lim muassasalarigalarda tayyorlangan mutaxassislarning sifati va malakasini maktabgacha ta‘lim tashkilotlari talablariga mos kelmasligi;

oliy ta‘lim muassasalariga, o‘quv majmualarini maktabgacha ta‘lim tashkilotlari dasturlari bilan mos tushmasligi;

Boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari o‘rtasidagi aloqalarning kuchsizligi;

Xamqorlik darajasining pastligi va ular tomonidan davlatning maktabgacha ta‘lim klasteri tuzish bo‘yicha tashabbusini pessemistik baholanishi;

Maktabgacha ta‘lim klasterini rivojlanishidan bo‘ladigan ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy samara vaqt jihatdan kechroq ro‘y beradi. Klaster faoliyatining samaradorligi tashqi muxitga – iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy muxitga, xukumatining qonunchilik tashabbuslariga bog‘liq.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlarini transformatsiya qilish**” deb nomlanib, maktabgacha ta’lim tashkilotlari bazasida ta’lim klasteri tuzilmasi, o‘quv-laboratoriya klasterlari - maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya sifatini oshirishning innovatsion mexanizmi, klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish texnologiyalari yoritib berilgan.

**Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida klaster** yondashuvi asosida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining kompetensiyalarini takomillashtirish bir mintaqaviy hududda joylashgan oliy va umumta’lim muassasalari hamkorligidagi klaster tuzilmasi asosida samarali tus oladi. Uning faoliyati subyektlarning o‘zaro hamkorlikdagi loyihalashtirilgan, huquqiy asoslar bilan ta’minlangan variativ o‘quv rejalar, dastur va loyihalarni ishlab chiqish hamda tatbiq qilish bilan amalga oshiriladi. Uzluksiz ta’lim turlari o‘zaro hamkorlik asosidagi klaster tuzilmasini tashkil qilishda iste’molchilar talablariga javob beradigan ijtimoiy buyurtma yetkazib beruvchilarning alohida va integratsion faoliyat mexanizmlari va bundan kutiladigan natijalarni belgilab olish muhim sanaladi.

Maktabgacha ta’limda klaster yondashuvini tatbiq etish uchun, ta’lim kontekstida klaster sharoitini yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Klaster sharoiti esa, barcha ta’lim turlarining umumiy maqsadlari va xususiy manfaatlarini inobatga oladigan hamkorlikdagi o‘quv reja va o‘quv dasturlari orqali amalga oshiriladi. Ta’lim klasterida iste’molchining asosiy talabi ta’lim oluvchilarning o‘quv dasturlardagi nazariy bilimlar bilan birga amaliy faoliyatga ham tayyorligi, ta’limning keyingi turi yoki ishlab chiqarishda ishni darhol boshlash va ta’lim tashkilotida olingan bilimlarni muayyan vazifalarda qo‘llay olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Biz tomondan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish uchun klasterlar g‘oyasidan foydalanish imkoniyati ko‘rsatildi. Ma’lum bo‘lishicha klaster yondashuvining metodik jihatdan ta’minlanganligi yetarli darajada emas. Uni amalga oshirish uchun biz tomondan quyidagi metodika taklif etildi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun pedagoglar tayyorlash oliy ta’lim muassasalari va maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning klaster modelini amalga oshirishni loyihalashtirish bir nechta bosqichlardan iborat bo‘ladi. O‘zaro hamkorlikning klaster modelini amalga oshirishning bosqichlar ketma-ketligi bo‘yicha biz quyidagilarni taklif etamiz (3-rasm).

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan klaster tuzilmasi mintaqaviy oliy o‘quv yurtlari bilan tenglik tamoyili asosida hamkorlikda tashkil qilingan bo‘lib, uning faoliyati klaster subyektlarining o‘zaro birgalikdagi loyihalashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish bilan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlaridan biri ta’lim salohiyati, psixologik-pedagogik fan va subyektlarning ta’lim amaliyoti integratsiya-sini ta’minlash hamda rivojlantirishga qaratilgan klaster tuzilmasiga o‘tish hisoblanadi.

Taqdim qilinayotgan maktabgacha ta’lim klasteriga muvofiq, klaster - doimiy pedagogik tafovutning milliy ta’lim tizimini innovatsion rivojlan-tirishdan

manfaatdor bo‘lgan va shartnomalar asosida o‘zaro hamkorlik qiladigan muassasalar va tashkilotlarning ixtiyoriy birlashmasidir.

Bosqichlar	Bosqich mazmuni	Natijalar
I bosqich	Ta'lim muassasalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanganlik darajasini baholash metodikalarini tanlash	Klasterni yaratish imkoniyatini baholash
II bosqich	Klaster yaratishni mexanizmini ishlab chiqish (qatnashchilarni motivatsiyalash, klasterni faoliyat tamoyillari, klaster to'g'risida nizom ishlab chiqish,	Klaster yaratishni prognozlashtirish, potensial qatnashchilarni baholash
III bosqich	Klasterni shakllantirish (boshqarish tuzilmasini tashkillashtirish, klaster qatnashchilarining o'zaro hamkorlik mevorlari va aoidalarini ishlab chiqish)	Klasterni yaratish
IV bosqich	Klaster ta'sirini baholash: –Oshirishga: xodim va mutaxassislarni tayyorgarlik sifati, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sifati; –Maktabgacha ta'limda innovatsion jarayonlarning	Maktabgacha ta'lim soxasi raqobatbardoshligini o'sishi

### 3-rasm. Bir guruh yondashuvni amalga oshirish uchun harakatlar guruhi

Maktabgacha ta'lim klasteri tuzilmasida mintaqaviy ta'lim tizimi(vazirlik) boshqaruv organlari, oliy ta'lim muassasalari, MTT, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, ilmiy tekshirish institutlari, ilmiy tadqiqotchilar, madaniy tashkilot va obyektlar, ijtimoiy muhit shuningdek, ota-onalar jamoatchiligi hamkorligidagi aniq maqsadlar yo'lida birlashgan subyektlar faoliyat olib boradi. Maktabgacha ta'lim klasteri mintaqada barcha ta'lim oluvchilar salohiyatiga tashqi ta'sir ko'rsatish orqali ta'lim samarador-ligini oshirish, o'z-o'zini rivojlantirish istagida bo'lgan, o'z ichki salohiyatiga ishonadigan, turli sohalaridagi bo'lajak mutaxassis uchun bir maydon yaratadi.

Maktabgacha ta'limni klaster yondashuvi asosida ta'lim jarayoni ishtirokchilarining kompetensiyalarini takomillashtirish bir mintaqaviy hududda joylashgan oliy va umumta'lim muassasalari hamkorligidagi klaster tuzilmasi asosida samarali tus oladi. Uning faoliyati subyektlarning o'zaro hamkorlikdagi loyihalashtirilgan, huquqiy asoslar bilan ta'minlangan variativ o'quv rejalar, dastur va loyihalarni ishlab chiqish hamda tatbiq qilish bilan amalga oshiriladi. (4-rasm).

Klaster ichida maktabgacha ta'limning o'zaro hamkorligi quyidagi integrativ asoslarda amalga oshiriladi:

Maqsadlar umumiyligi. Darxaqiqat, oliy ta'lim muassasalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlar bilan umumiy maqsadi ta'lim natijalarida – o'quv muassasasi bitiruvchilarida – aniq malaka va ijtimoiy-kasbiy xususiyatlarga ega bo'lgan kompetent mutaxassislarda ifodalanadi. Har qanday maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsadi, yuqori malakaga ega bo'lgan kadrlar hisoblansa, o'quv muassasasining maqsadi – talabgir bo'lgan mutaxassislar tayyorlash hisoblanadi.

Bunday maqsad ta'limning an'anaviy kognitiv yo'naltirilganligini bartaraf etgan holda ta'lim jarayonini "natijadan" kelib chiqqan holda qurish imkonini beradi.

Mazmunning umumiyliigi. Maktabgacha ta'limning mazmuni – bilim, saviya va ko'nikmalar va ular asosida shakllanadigan tayanch shaxsiy-kasbiy kompetensiyalar mutaxassisning maktabgacha ta'lim tashkilotdagi kasbiy faoliyatiga to'g'ri keladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanadigan vositalar va boshqalar o'zlashtiriladi.

Faoliyat umumiyliigi.

Faoliyatning umumiyliigi talabalar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotda amaliyot o'talganda, har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida qabul qilingan yo'riqnomaga muvofiq, ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon bo'ladi.

Qadriyatlar umumiyliigi.

Qadriyatlar umumiyliigi bularsiz zamonaviy mutaxassis bo'la olmaydigan texnik-texnologik, ijtimoiy, insoniylik qadriyatlarining uyg'unligini bildiradi.

Ta'kilash joizki, uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida maktabgacha ta'lim klasteri turli darajadagi ta'lim muassasalri orasidagi aloqani mustahkamlash, talabalarning amaliy tayorgarlik sifatini yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini yaxshilash, "Klaster" tizimida izchillik va integratsion jarayonlar tamoyilini amalga oshirish imkonini beradi.

O'quv-ilmiy-ishlab chiqarish kompleksi – bu universitet bazasidagi maktabgacha ta'lim muassasalari, ilmiy va tijoriy, innovatsion va boshqa tashkilotlarni birlashtirgan korporativ tipidagi tuzilmadir. U intellektual, moddiy va ishlab chiqarish zaxiralarini integratsiyasi uchun birgalikdagi innovatsion infratuzilmani tashkillashtiradi.

Natijada quyidagi tamoyillarni bajarish asosida ta'lim jarayonining innovatsion mazmuniga erishishga imkoniyat paydo bo'ladi:

universallik — mutaxassislarni tayanch tayorgarligini ta'minlovchi variativ dasturlar to'plamining to'laligi;

ilmiy tadqiqotlar va o'quv kurslari, ta'lim jarayonining mazmunan va tuzilmaviy-faoliyat birligining fanlararo kooperatsiyasi;

variativlik — bu majburiy tayanch kurslari va keng spektrdagi maxsus o'quv fanlarini tanlash bo'yicha qo'shimcha fanlarning moslashuvchan uyg'unligi, o'quv algoritmining turli-tumanligi, o'quv xajmi, tezligi va shaklini erkin tanlash;


ko'p bosqichlilik— maktabgacha, umumiy, maxsus va oliy ta'lim, aspirantura, doktorantura, oliy ta'limdan keyingi malaka oshirishning turli shakllariga kirishda tayorgarlik.

Quyidagilar o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish kompleksi sub'ektlarining pedagogik hamkorligi shartlari hisoblanadi:

ijtimoiy hamkorlik va ta'lim tashkilotlari, ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalarining o'zaro foydali hamkorligi tamoyillarini amalga oshirish;

ishlab chiqarish amaliyotini ahamiyatli shaxsiy qadriyat, boshlang'ich mutaxassisni o'ta muxim kasbiy moslashuvi omiliga aylantirish;

maktabgacha ta'lim hamkorligini innovatsion shakllarini tadbqiq etish, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o'tkazishda pedagogik qo'llab-quvvatlash.



**4-rasm. Maktabgacha ta'lim klasteri tuzilmasi (modeli)**

Maktabgacha ta'lim sohasiga tatbiq etilayotgan klaster tuzilmasi yangi jarayon bo'lib, **“o'quv-ilmiy kompleks laboratoriya”** innovatsion maydonchalari uni amalga oshirishning eng asosiy vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Maktabgacha ta'lim klasteri doirasida ta'lim turlarining ilmiy, nazariy, amaliy, metodik salohiyatlarini yagona maqsadga yo'naltirish, mavjud muammolarni bartaraf etish yoki maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muayyan yo'nalishdagi

ishlarining samaradorligini oshirishda ulardan oqilona foydalanish maqsadida **“o‘quv-ilmii kompleks laboratoriya”** maydonchalari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. **“o‘quv-ilmii kompleks laboratoriya” innovatsion-integratsion maydonchalari** oliy ta‘lim va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari jarayonida ilmiy, uslubiy va ta‘lim vositalarini rivojlantirish, klaster tuzilmasini maktabgacha ta‘lim amaliyotiga tatbiq etish bilan bog‘liq ilmiy-pedagogik dastur va loyihalarni tajriba-sinovdan o‘tkazish hamda oliy ta‘lim – MTT– uzluksiz kasbiy rivojlantirish o‘rtasidagi amaliy integratsion faoliyatni rivojlantirishdan iborat. Bundan ko‘rinib turibdiki, **“o‘quv-ilmii kompleks laboratoriya”**lar oliy ta‘lim – MTT– uzluksiz kasbiy rivojlantirishni o‘zaro integratsiya jarayonlarini faollashtirishga, ularning salohiyatlaridan samarali foydalanishga, mavjud muammolarni bartaraf etishning innovatsion shakllarini izlab topishga va yechimlariga nisbatan ilmiy yondashuvlarni shakllantirishga, maktabgacha ta‘lim tizimidagi uzviylik, uzluksizlik va izchillikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etilishi va natijalar samaradorligini baholash texnologiyalari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etilishi va natijalarning statistik tahlili, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim-tarbiya jarayonlari sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari yoritib berilgan.

klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim sifatini oshirishni rivojlantirishning pedagogik samaradorligi, klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim sifatini boshqarish darajasini aniqlash buyicha tajriba davomidagi uzlashtirish natijalari, tajriba-sinov o‘tkazilgan maydonlar buyicha tajriba yakunidagi umumiy natijalar diagrammasi masalalari bayon qilingan.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining samaradorligi uning maxsus dastur asosida olib borilganligi, hududiy tanlanma nazoratning qo‘llanilishi, tegishli shart-sharoitning yaratilganligi hamda klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotida ta‘lim sifatini oshiruvchi mezonlarni ishlab chiqilganligi ishlab chiqilishi ushbu jarayonning samaradorligini ta‘minladi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlariga tadqiqot obyektlari sifatida 8 ta maktabgacha ta‘lim tashkilotlari (Namangan, Sirdaryo, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari), tarbiyalanuvchilarning ota-onalari, maktabgacha ta‘lim yo‘nalishida kadrlar tayyorlovchi 4 ta oliy ta‘lim muassasalari (Chirchiq davlat pedagogika instituti, Namangan davlat universiteti, Guliston davlat universiteti, Qarshi davlat pedagogika instituti) ning rahbar va pedagog kadrlari, bitiruvchi talabalari, shuningdek maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malaka oshirish instituti tinglovchilari jalb etildi.

## 2-jadval

Tajriba o'qtazilgan joylar nomlari	Ko'rsatgichlar	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
		Tajriba boshida respondentlar soni	%	Tajriba yakunida respondentlar soni	%	Tajriba boshida respondentlar soni	%	Tajriba yakunida respondentlar soni	%
Barja tajriba maydonlari-dagi umumiy natijalar	Yuqori	126		202		124		125	
	O'rta	153		155		155		154	
	Past	117		39		117		117	

Pedagogik tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda loyihalashtirildi:

1) 2020-2021-yillar - tadqiqot yo'nalishining uchun tanlangan muammoning ijtimoiy-pedagogik, psixologik mohiyatini to'g'ri anglash va dolzarblik darajasini aniqlash, uning konseptual va maqbul yechimini topish yo'llari hamda vazifalarini oqilona belgilash maqsadida tashkil etiluvchi analitik-diagnostik tahlil bosqichi. Mazkur bosqichda klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ilgari surilgan ilmiy-pedagogik g'oyalar, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, bu borada faoliyat subyektlari (MTT direktori, pedagog-tarbiyachilar, maktabgacha ta'lim yo'nalishida kadrlar tayyorlovchi OTM pedagoglari, talabalari, mazkur yo'nalishdagi malaka oshirish ta'lim muassasalari ma'sullari) buyicha tadqiqot obyektlari va respondentlar o'rganildi. Diagnostik instrumentlar sifatida faoliyat mahsulini o'rganish, anketa, intervyu, suhbat, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, SWOT tahlil, PEST tahlil, modellashtirish kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

2) 2021-2022-yillar - ilmiy-pedagogik manbalar tahlili, empirik kuzatishlar, amaliyotdagi mavjud holat tahlilidan kelib chiqqan holda, tadqiqot muammosining ijobiy, samarali yechimini shakllantirish maqsadida maxsus rivojlantirish dasturni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qaratilgan asoslovchi-rivojlantiruvchi bosqich.

Rivojlantiruvchi bosqichda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari, tuman ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlash va metodik xizmatni tashkil etish sho'basini metodistlari va pedagog-tarbiyachilarini pedagoglarini pedagogik jarayonlarga jalb qilish ishlari 4 blokda olib borilishi ularni tadqiqot g'oyalaridagi vazifalarni amalga oshirishda muhim bosqich bo'ldi. Ular:

**motivatsion blok-** MTT direktorlari, tuman ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlash va metodik xizmatni tashkil etish sho'basini metodistlari va tarbiyachilarining oliy ta'lim muassasalari bilan xamkorligidagi ishlarini tashkil etish, nazariy bilimlarni amaliyotda joriy qilishni bir-biriga mutanosibligini ta'minlan va malaka oshirish jarayonida amaliyotdagi bilimlarni mustahkamlash bo'yicha tushunchalarni berish;

**kognitiv blok-** Maktabgacha ta'lim tashkilotini oliy ta'lim, malaka oshirish bilan hamkorlikdagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, MTTda ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish,

maktabgacha ta'lim tashkiloti, oliy ta'lim muassasalari va malaka oshirish instituti hamkorlikdagi o'zaro metodik ishlarni o'rganish;


**amaliy blok-** maktabgacha ta'lim tashkilotini oliy ta'lim, malaka oshirish bilan hamkorlikdagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yiladi, MTTda ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi, MTT direktorlari, tuman ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlash va metodik xizmatni tashkil etish sho'basini metodistlari va tarbiyachilarning klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim va tarbiya sifatini oshirishga qaratilgan ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi;

**nazorat qiluvchi blok-** so'rovnoma to'ldirish, hamkorlikdagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, doimiy sifat monitoringini o'tkazish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish ishlari olib asosida, natijalarning ijobiy o'sishini aniqlashga qaratiladi.

Rivojlantiruvchi maxsus dastur maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tinglovchilari, ya'ni maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari, tuman ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlash va metodik xizmatni tashkil etish sho'basini metodistlari va pedagog-tarbiyachilari orasida o'tkazildi.

3) 2021-2022-yillar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirishning klaster mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha rivojlantiruvchi dastur natijalarini tahlil etish, ijtimoiy-ta'limiy samaradorligini baholash, iste'molchilarning talablari va takliflari asosida maktabgacha ta'limning klasterli modelini takomillashtirish asosida turli maqsadlarda tashkil etilgan klaster hududlardan olingan natijalarni taxlil qilish va ularni statistik usullar orqali samaradorligini aniqlash hamda ilmiy asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan bosqichda olib borildi.

Bundan shuni aytish mumkinki, tajriba guruhining kursatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 13,4% ga oshganligini ko'rish mumkin.



**5-rasm. Tajriba-sinov o'tkazilgan maydonlar buyicha tajriba yakunidagi umumiy natijalar diagrammasi**

## XULOSA

“Klaster yondashuvi asosida maktabgacha ta’lim ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish” mavzusidagi dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi **xulosalarga** kelindi:

1. Maktabgacha ta’lim tizimi sifatini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar hajmining ortishi maktabgacha ta’lim tashkilotlari sifat darajalarini aniqlash, ularda mintaqa miqyosida sifat ko‘rsatkichlarining monitoring qilinishi natijasida maktabgacha ta’lim tarbiyachi-pedagoglari o‘rtasida yaratiladigan raqobat maydoni ta’lim samaradorligini oshirish imkonini beradi.

2. Maktabgacha ta’lim samaradorligini oshirishga klaster yondashuvni tatbiq etilishi uni subyektivlik, tarkib, tuzilish, rivojlanish, talaba ehtiyojlarini muvofiqlashtirish kabi xususiyatlar orqali davlat va jamiyatni o‘zaro bog‘liqlikda insonparvarlik, uzluksizlik, taraqqiyot va demokratlashtirish g‘oyalariga asoslangan zamonaviy ta’limning yangilanishi va rivojlanishini belgilab beradi.

3. Maktabgacha ta’limda klaster yondashuvni nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish natijasida mintaqaning ta’lim sifati menejmenti, ta’lim mazmuni tarkibining asosiy xususiyatlarini har tomonlama yangilash va rivojlantirish imkoniyatlari ortadi.

4. Klaster modelini maktabgacha ta’lim tizimiga tatbiq etish shartlarining aniqlanishi va ularning joriy etilishi maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini sifatini oshirishga yordam beradi.

5. Maktabgacha ta’lim tizimida maqsadga yo‘naltirilgan, integrativ tuzilishga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim sifatini oshirishning yangi modellarida integratsion pedagogik va texnologik yondashuvlarni joriy etishga innovatsion samarali mexanizm sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

6. Maktabgacha ta’lim tizimining umumiy maqsadi va xususiy manfaatidan kelib chiqib belgilanadigan ijtimoiy buyurtma maktabgacha ta’limning turli bosqichlari kesimida amaliyot muhiti maqsadiga motivatsion yo‘nalgan iste‘molchi – ta’lim oluvchini ta‘minlashni iste‘dod, qiziqish, qobiliyat, iqtidor xususiyatlarini rivojlantirish orqali ta‘minlash maktabgacha ta’lim sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi va bu yuqori samaradorlikka erishish imkoniyatini, jarayonning uzviylik va izchillikda tashkil qilinishi jamiyat ehtiyojlariga muvofiq raqobatbardosh kadr tayyorlanishini ta‘minlaydi.

7. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda pedagogik ta’lim klasteri modelini amaliyotga joriy etish zarurati mavjudligini ko‘rsatdi.

8. Klaster yondashuvi asosida maktabgacha ta’limning ilmiy salohiyatini umumta’lim maktablariga yo‘naltirish asosida o‘quv jarayonlarini tashkil qilish bo‘yicha tanlangan o‘qitish metodika va yondashuvlari natijasida samaradorlik ko‘rsatkichi **13,4%** ni tashkil qildi.

Bu bilan dissertatsiya maqsadining to‘g‘ri qo‘yilganligi, ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy asoslarning to‘g‘riligi, uni amaliyotga joriy etish borasida taklif etilgan tavsiyalarning asosli ekanligi, tajriba-sinov jarayonida qo‘llangan metod va usullarning samarali ekanligi dalillandi.

### **Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:**

1. O'quv reja va dasturlarni maktabgacha ta'lim klasteri ijtimoiy buyurtma iste'molchisi talablari va ulardagi ilm, fan hamda texnologik yangilanishlar asosida takomillashtirib borish zarurligini hisobga olgan holda barcha MTT faoliyatini variativ o'quv rejalar asosida tashkil qilish lozim.

2. Maktabgacha ta'lim sifati va bo'lajak tarbiyachilarni baholashda iste'molchilar ishtirokini kengaytirish, ta'lim sifati ta'minlashda ularni jalb qilishning innovatsion ta'lim xizmatlarini yo'lga qo'yish zarur.

3. Maktabgacha ta'lim sohasidagi kadrlarga bo'lgan talab va takliflarni inobatga olgan holda oliy ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ta'limning nazariy qismi bilan birgalikda amaliy qismni ham ijtimoiy buyurtma iste'molchilari talablarini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish maqsadga muvofiq.

4. Maktabgacha ta'lim klasteri ishtiroqchilari o'rtasidagi maqsadli va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish orqali ta'lim oluvchilarning maktabgacha ta'lim sifati oshirish bo'yicha yetarli ma'lumotlar berish tizimini takomillashtirish, kasblar nufuzini oshirish va bunda yuzaga keladigan byurakratik to'siqlarni bartaraf etish lozim.

5. Maktabgacha ta'lim klasteri ishtiroqchilari faoliyatining sifati monitoring qilishda iste'molchilar ishtirokini kengaytirish zarur.

Zamonaviy raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida Respublika darajasidagi maktabgacha ta'lim klasterini tashkil qilish, bunga vakolatli davlat organlarini jalb qilish, bosqichma-bosqich resurslar hajmini oshirib borish lozim.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
PhD.03/31.05.2022.PED.16.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ИНСТИТУТ ПЕРЕПОДГОТОВКИ И ПОВЫШЕНИЯ  
КВАЛИФИКАЦИИ ДИРЕКТОРОВ И СПЕЦИАЛИСТОВ  
ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ**

**АБДУЛЛАЕВА НАФИСА ШАВКАТОВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПОВЫШЕНИЯ  
КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ НА ОСНОВЕ  
КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА**

**13.00.07 – Менеджмент в образовании**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук (DSc)**

**Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за № B2020.4.DSc/Ped185.**

Докторская диссертация выполнена в Институте переподготовки и повышения квалификации директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

<b>Научный консультант:</b>	<b>Мирсолиева Мухаббат Тухтасиновна</b> доктор педагогических наук (DSc), профессор
<b>Официальные оппоненты::</b>	<b>Ходжамкулов Умид Негматович</b> доктор педагогических наук (DSc), профессор <b>Юлдашев Максуд Абдуллаевич</b> доктор педагогических наук (DSc), профессор <b>Джамилова Наргиза Нуриддиновна</b> доктор педагогических наук, профессор
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Ферганский государственный университет</b>

Защита диссертации состоится “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023 года в \_\_\_ часов на заседании Разового Научного совета на основе Научного совета PhD.03/31.05.2022.ped.16.04 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете (Адрес: 100066, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Ислама Каримова, дом 49. Тел.: +99871 239-01-43, +99871 239-01-49 факс: (0311) 239-41-23 (99871) 246-06-69; Web-site:[www.tsue.uz](http://www.tsue.uz); Ye-mail:[info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_). Адрес: 100066, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Ислама Каримова, дом 49. Тел.: +99871 239-01-43, +99871 239-01-49 факс: (0311) 239-41-23 (99871) 246-06-69; Web-site:[www.tsue.uz](http://www.tsue.uz); Ye-mail:[info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz))

Автореферат диссертации разослан “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023 года  
(протокол реестра рассылки № \_\_\_\_\_ от “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023 года).

**М.Ф. Хакимова**

Председатель разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней, д.п.н., профессор

**Ш. Мамаражабов**

Ученый секретарь разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней, к.п.н., доцент

**Д.О. Химматалиев**

Председатель научного семинара при разовом научном совете на основе научного совета по присуждению ученых степеней, д.п.н., профессор

## **Введение (аннотация диссертации доктора наук (DSc))**

**Актуальность и необходимость темы исследования.** В развитых странах мира в качестве одних из важных направлений рассматриваются внедрение кластерного подхода в образование, лидерование в сфере высоких технологий и развитие цифровой экономики. В Целях устойчивого развития ООН до 2030 года (Sustainable Development Goals) развитие профессионально-технических и предпринимательских навыков, пользующихся большим спросом на рынке труда, повышение конкурентоспособности в научной и инновационной деятельности, обеспечение диверсификации образовательных услуг определены как одни из глобальных индикаторов. Это, в свою очередь, предполагает совершенствование деятельности организаций дошкольного образования, высшего образования и повышения квалификации в качестве инновационного кампуса, обеспечивающего их интеграцию.

Ведущие научные центры и исследователи мира проводят научные исследования, направленные на развитие научно-инновационных кластеров на основе интеграции высших образовательных учреждений и производства, менеджмента кластеров, совершенствование механизмов их взаимного конструктивного общения, создание открытых информационных систем для повышения инновационной активности кадров. Согласно Глобальной конвенции ЮНЕСКО о признании квалификаций высшего образования (2019 г.), привлечение готовящихся в высших образовательных учреждениях высококвалифицированных специалистов к образовательным процессам непосредственно связано с их навыками системного анализа и творческого мышления, владением профессиональными компетенциями, обеспечивающими инновационное развитие. Осуществляются научные исследования в таких перспективных направлениях, как внедрение современных методов и средств управления, формирование научно-теоретических основ инновационного кластера образования, совершенствование механизмов оценки инновационной деятельности высших образовательных учреждений в процессе развития интеграции дошкольного образования, высшего образования и повышения квалификации.

В нашей стране уделяется особое внимание вопросам развития инновационной информационно-образовательной среды в системе подготовки кадров, совершенствования интеграции дошкольного образования, высшего образования и повышения квалификации на основе кластерного подхода, обеспечения трансфера знаний. Развитие национальной системы образования, организация на высоком уровне образовательного процесса показывают необходимость систематического внедрения научных достижений в производство. В Концепции развития науки до 2030 года определены следующие задачи: “Налаживание системы подготовки высококвалифицированных кадров, которые могут вносить достойный вклад

в устойчивое развитие социальной сферы и отраслей экономики, найти свое место на рынке труда”<sup>1</sup>.

Указ УП-6097 от 29 октября 2020 года “Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года” предусматривает совершенствование модели интеграции, организационно-управленческих, педагогических механизмов инновационного развития высших образовательных учреждений. Настоящая диссертация в определенной мере служит выполнению задач, определенных в Указах и Постановления Президента Республики Узбекистан, УП-5847 от 8 октября 2019 года “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, УП-6097 от 29 октября 2020 года “Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года”, УП-6108 от 6 ноября 2020 года “О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана”, УП-2909 от 20 апреля 2017 года “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, ПП-3151 от 27 июля 2017 года “О мерах по дальнейшему расширению участия отраслей и сфер экономики в повышении качества подготовки специалистов с высшим образованием”, УП-60 от 28 января 2022 года “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы” и других нормативно-правовых актах.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий I. «Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического культурного и духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства и пути ее реализации».

### **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>2</sup>.**

Ведущими научными центрами и высшими образовательными учреждениями мира, в том числе Массачусетским и Гарвардским университетами (США), Страсбургским университетом (Франция), Упсальским университетом (Швеция), TU9 – объединением ведущих технических ВУЗов Германии и “U15” объединением университетов (Германия), Национальным исследовательским университетом “Высшей школы экономики” (Россия), Беларусским государственным педагогическим университетом (Беларуссия), а также Наманганским государственным университетом и Чирчикским государственным педагогическим университетом Ташкентской области (Узбекистан), с начала 90-х годов

---

<sup>1</sup> Постановление Президента Республики Узбекистан ПП-4312 от 8 мая 2019 года “Об утверждении концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года”. - Национальная база данных законодательства, 10.05.2019 г.

<sup>2</sup> Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации осуществлен на основе: <https://www.hhs.se/contentassets/f51b706e1d644e9fa6c4d232abd09e63/greenbooksep03.pdf>; <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=26824>; Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors”<sup>2</sup>, Cambridge, 1980, 454 pages; Innovation clusters in France: Innovation Comes First. URL: <http://www.invest-infrance.org/us/why-choose-france/research-and-partnerships-innovation-clusters.htm>); Elektronnyj resurs: <http://www.promcluster.ru/index.php/publications-clusters.html>; Концепция развития педагогического образования на 2015–2020 годы: утв. Приказом Министерства образования Респ. Беларусь, 25 фев. 2015 г., № 156. [Электронный ресурс].- Режим доступа: [http://bspu.by/admin-panel/vendor/kcfinder/upload/files/klaster/The\\_concept\\_of\\_teacher\\_education.pdf](http://bspu.by/admin-panel/vendor/kcfinder/upload/files/klaster/The_concept_of_teacher_education.pdf). – с. 10 и других источников.

прошлого века проводятся научные изыскания, связанные с внедрением модели кластера в образование.

В результате осуществления исследований, посвященных внедрению кластерного подхода в дошкольное образование, во всем мире получен ряд следующих результатов: существующая в отраслях экономики последовательность процесса производства в образовательных кластерах смоделирована в качестве эквивалента человеческого капитала в рыночных механизмах (Массачусетский и Гарвардский университеты); в результате организационного объединения высших образовательных учреждений посредством кластера созданы научные основы повышения их конкурентоспособности и улучшения показателей национальной системы образования в международных рейтингах (Страсбургский университет); создана модернизированная система преподавания дисциплин посредством кластера в образовательных учреждениях (Уппсальский университет); разработаны региональные модели обеспечения с помощью кластерного подхода интеграции образования и науки, образования и производства (TU9 – объединение ведущих технических ВУЗов Германии); разработана кластерная модель подготовки кадров с их региональным распределением, учитывающим потребности рынка труда (Национальный исследовательский университет “Высшей школы экономики”); созданы инновационные региональные системы внедрения кластерного подхода к педагогическому образованию (Беларусский государственный педагогический университет); разработаны национальная модель, принципы и механизмы внедрения в практику инновационного кластера педагогического образования (Чирчикский государственный педагогический университет Ташкентской области и Наманганский государственный университет).

Во всем мире осуществляется ряд научных исследований по совершенствованию научно-теоретических основ инновационного кластера педагогического образования, в том числе по таким приоритетным направлениям, как совершенствование механизмов модели кластера в экономике, служащих повышению конкурентоспособности субъектов, обеспечивающих эффективность посредством объединения их сил и потенциала на основе таких принципов кластера, как общая цель, частный интерес, взаимный контроль; повышение конкурентоспособности высших образовательных учреждений и научных центров на основе их объединения в единую систему; научное обоснование роли кластеров в обеспечении конкурентоспособности субъектов образования посредством интеграции образования-науки-производства; разработка механизмов внедрения в практику педагогических образовательных кластеров, принимая во внимание принципы существующей политики образования.

**Степень изученности проблемы.** Исследования, посвященные развитию сферы дошкольного образования, в республике осуществлены такими учеными, как Ф.Р.Кодирова, А.В.Шин, Д.А.Абдурахимова, Х.Н.Ибрагимова, Т.Л.Хурвалиева, З.Ф.Азизова, Г.А.Бердалиева, Г.М.Назирова, Н.И.Режаметова, И.И.Туйчиева, С.С.Рахимова, М.М.Бердиева,

Г.Е.Джанпеисова, Ш.А.Содикова, Д.Р.Бабаева, М.Т.Хамдамова  
Н.С.Муминова, Н.С.Шаизакова, М.Н.Хушназарова, О.А.Махмудова.

Научные исследования, имеющие отношение к вопросам сущности и содержания современных концепций развития образовательных учреждений республики, повышения качества подготовки кадров, интеграции, взаимосвязи и непрерывности в образовательном процессе, внедрения инноваций, информационно-коммуникационных технологий в образовательный процесс, отражены в работах таких отечественных ученых, как Р.Джураев, Ш.Шарипов, Ш.Курбонов, Ф.Закирова, У.Бегимкулов, Ш.Мардонов, Н.Муслимов, К.Олимов, Э.Юзликаева; формирование инновационного менеджмента в высшем педагогическом образовании, внедрение менеджмента системы образования, механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента, механизмы совершенствования менеджмента качества образования в учреждениях повышения квалификации, формирование научно-теоретических основ инновационного кластера педагогического образования рассмотрены в исследованиях таких ученых, как М.Мирсолиева, У.Иноятв, Ж.Йулдошев, Я.Исмадияров, А.Магруппов, С.Тургунов, М.Юлдашев, Ш.Ш.Мирзиёева, Б.У.Усмонов, У.Н.Ходжамкулов.

